



**MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI MUHOFAZA
QILISHDA UCHRAYDIGAN HUQUQBUZARLIKLAR TUSHUNCHASI
VA TURLARI**

*Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va
inson huquqlari kafedrasi o'qituvchisi, leytenant
Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi yoritilgan. Xususan, ro'yxatga oluvchi organ tomonidan ariza ko'rib chiqish uchun qabul qilingan kundan boshlab o'n kun muddatda huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yer uchastkasi, muhofaza etiladigan tabiiy hudud, huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish, davlat ro'yxati.

Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, ishdan chiqarish, uning ekologik muvozanatini buzishda namoyon bo'ladigan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkaziladigan zarar ekologik huquqbuzarlikning asosiy belgisidir. Atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar ikkita asosiy turda, ya'ni ekologik va iqtisodiy ko'rinishda ifodalanadi. Ular o'zaro bog'liq bo'lib ekologik zarar iqtisodiy yo'qotishlarda ifodalanadi, iqtisodiy zarardan keyin esa tabiatda salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Iqtisodiy zararining o'rnini qoplash mumkin, ekologik zararni esa avvalgi holatida tiklashning hamda uni pulga chaqib ifodalash ancha murakkabdir.

Inson sivilizatsiyasining taraqqiyotiga bog'liq ravishda o'z turmush darajasini doimo yaxshilashga harakat qiladi va buning oqibatida tabiiy jarayonlarga ko'proq aralashadi hamda antropogen (inson tomonidan bo'ladigan) ta'sir ko'lamlari kengayib boradi. Tabiatga antropogen ta'sir ko'rsatish tobora jadallashib, borgan sari uning oqibatlari esa tobora salbiylashib boradi. Bu yer va suvlarning ifloslanishida, o'rmonlarning qisqarib borishida, atmosfera havosining bulg'anishida namoyon



bo'lib, jamiyatni nazoratsiz ta'siri oqibatida ulkan hududlardagi azaliy tabiiy muhitning buzilishiga sabab bo'ladi.

Odatda, tabiat resurslaridan foydalanish foyda olish maqsadida amalga oshirilib, bu tabiatga nisbatan vahshiylarcha munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi. Natijada atrof tabiiy muhit odamlar uchun ham, tabiatning o'zi uchun ham xavf-xatar manbaiga aylanib bormoqda. Tabiat resurslarining to'xtovsiz ravishda iste'mol qilish ularning butunlay yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababdan, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib ketishi, tabiatni muhofaza qilish ustidan lozim darajadagi nazoratning mavjud emasligi global muammoga aylanib qolmoqda.

Ayniqsa, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar ekologiyaga jiddiy zarar yetkazadi. M.B.Usmonov tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifga ko'ra, "ekologik huquqbuzarlik deganda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek aholining qulay ekologik sharoitga ega bo'lish huquqiga ta'sir etuvchi huquqqa xilof ijtimoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi"¹.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga zarar yetkazish usuli bo'yicha ekologik huquqbuzarliklarni besh guruhga bo'lish mumkin: atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, tabiat resurslaridan nooqilona isrofgarchilik bilan foydalanish, tabiat obyektlarini buzish, ularga shikast yetkazish va yo'q qilib borish, kamquvvat qilish, tabiiy muhitni, uning ekologik aloqalarini buzish.

Ushbu muammo xususida to'xtalib, O.L.Dubovik ekologik huquqbuzarliklar tarkibini quyidagicha tasniflashni taklif etadi: 1) tabiiy resurslarni yo'q qilib yuborish yoki ularga shikast yetkazish, suvlarni ifloslantirish, o'rmonlarini yo'q qilib yuborish yoki ularga shikast yetkazish, qishloq xo'jalik yerlari va boshqa yerlarni buzish; 2) atrof tabiiy muhit holatini yomonlashtirish, masalan, foydali qazilmalar balans zahiralari asossiz ravishda yo'qotilishiga olib keladigan tarzda qazilma boyliklarga boy uchastkalarini tanlab-tanlab foydalanish; 3) tabiat obyektlarini ajratish,

¹ Усмонов М.Б. Экологик хавфсизлик ҳуқуқи. –Т.; ЖХУ нашриёти, 2023, 254-бет



noqonuniy berish va ekspluatatsiya qilish qoidalarini buzish; quritish tizimlarini muhofaza etish va nazorat qilib borish qoidalarini buzish; suvlarni ifloslantirish va axlatlantirish oldini oluvchi inshootlarsiz korxonalar va boshqa obyektlarni foydalanishga topshirish; 4) harakatsizlik, qoidalarni bajarmaslik masalan, yer ostini muhofaza qilish qoidalarini bajarmaslik; 5) tabiat resurslaridan g'arazli maqsadlarda foydalanish (brakonyerlik, yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarni noqonuniy yig'ish)².

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilishda uchraydigan huquqbuzarliklar asosan ekologiya qonunchiligida belgilangan talablarni buzishdan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunining 10-bobida tabiat obyektlaridan foydalanish bo'yicha xo'jalik va boshqa faoliyatlarga qo'yiladigan umumiy ekologik talablar belgilangan. Tabiatdan foydalanuvchilarning ushbu talablarga rioya qilmasliklari va ularni buzishlari bu shaxslarni yuridik javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Ushbu qonunning 41-moddasida aytilishicha, korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiyalash, kengaytirish va texnika bilan qayta uskunalash, ulardan foydalanish va ularni tugatish chog'ida ekologiya xavfsizligi talablari bajarilmog'i, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari nazarda tutilmog'i lozim³. Atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni, ularning ko'rsatadigan ta'siri hisob-kitob qilib baholamasdan turib ishlab chiqish va amalga oshirish man etiladi.

Bundan tashqari, tabiiy resurslardan foydalanishda tabiiy ekologik tizimlarni, odamlarning genetik fondiga ta'sir ko'rsatuvchi, hayvonot va nabobot olamiga zarar keltiruvchi, atrof tabiiy muhitni aholining hayoti va sog'lig'iga xavfli holga keltirib qo'yadigan darajada o'zgartirib yuboruvchi har qanday xo'jalik hamda boshqa faoliyatni yuritish ta'qiqlandi. Aholi turar joylarini, korxonalarini, binolar va inshootlarni, sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlarini, suv bilan ta'minlash

² Дубовик О.Л. Эффективность юридической ответственности в охране окружающей среды. –М.: Наука, 1985, Б. 23-24

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси, 1993, 1-сон, 38-модда



tizimlarini, kanalizatsiyalarni, gidrotexnika inshootlarini, transport va aloqa vositalarini, texnologik jarayonlarni, mahsulotlar va asbob-uskunalar ishlab chiqarish korxonalarini va boshqa obyektlarni loyihalashda atrof tabiiy muhit sifati normativlari hisobga olinishi, zararli chiqindilarni zararsizlantirish va utillashtirish yo'llari nazarda tutilishi, kam chiqindili va chiqindi chiqarmaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish yo'llari topilishi, atrof muhit ifloslanishini oldini olishning samarali choralari ko'rilishi, tabiiy resurslarni qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanish yo'llarini topish lozim.

Korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, qurish va rekonstruksiya qilishda atrof tabiiy muhit muhofazasi shartlari va qoidalarga rioya qilinishi, yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha choralari ko'rilishi, tabiiy resurslarni qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanilishi, hududlar obodonlashtirilishi va atrof tabiiy muhit sog'lomlashtirilishi lozim. Tabiiy resurslarni qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanish hamda yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha loyihalashtirilgan ishlar amalga oshirilmasdan turib, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi ustidan nazorat vositalari o'rnatilmasdan turib, atrof tabiiy muhitga va atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindilarni yo'l qo'ysa bo'ladigan darajagacha kamaytiradigan, tozalaydigan, zararsizlantiradigan va utillashtiradigan qurilmalar va asbob-usunalar bilan ta'minlanmagan korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni ishga tushirish ta'qiqlanadi.

Korxonalar, muassasa, tashkilotlar hamda fuqarolar yovvoyi hayvonlar yashaydigan joylarda, aholi dam olish joylarida, shaharlar va boshqa aholi turar joylarining maydonlarida, hovlilarida, ko'chalar va odamlar yashaydigan binolarda, sanoat va jamoatchilik joylarida shovqin, titrash, magnit maydonlari va boshqa fizik ta'sirlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishlari lozim.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza etish bo'yicha ekologik talablar normalari sohaviy qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida yerdan foydalanuvchilarga qo'yiladigan ekologik talablar hamda ularning majburiyatlari nazarda tutilgan. Unda



ko'rsatilishicha, yangi va rekonstruksiya qilingan binolar, qurilishlar, inshootlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash va ishga tushirishda, yerlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishda yerlarning muhofaza qilinishi borasidagi chora-tadbirlar nazarda tutilishi va amalga oshirilishi, ekologik, sanitariya-gigiyena va boshqa maxsus talablarga, ya'ni normalar, qoidalar va normativlarga rioya etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksiga ko'ra, barcha suvlar aholi sog'lig'iga zarar keltirishi, baliq zahiralarining kamayib ketishiga, suv ta'minoti sharoitlarini yomonlashuviga va boshqa noqulay hollarga olib kelishi mumkin bo'lgan ifloslanish, bug'lanish, tugash, ya'ni qurib qolishdan muhofaza etilishi lozim. Shuningdek, ushbu Kodeksga ko'ra, korxonalar, muassasa va fuqarolar suv obyektlariga ishlab chiqarish, maishiy va boshqa chiqindilar hamda axlatlarni tashlash, yog', yog'och, kimyoviy, neft va boshqa mahsulotlarning nobud bo'lishi orqasida suvlarni ifloslantirishi man etiladi⁴.

Suvga oid huquqbuzarliklar asosan suv resurslarining ifloslanishi, suv obyektlarining turli axlatlar, chiqindilar bilan to'lib, sayozlanib qolishi bilan bog'liqdir. Aholi zich joylashgan hamda sanoat korxonalarini ko'p bo'lgan joylarda daryolar va ko'llarning ifloslanish darajasi ayniqsa yuqori bo'ladi. Suv havzalari asosan sanoat va maishiy korxonalarining oqova suvlari bilan, foydali qazilmalarni qayta ishlash, yuvish, boyitish, ya'ni to'yintirish hamda qayta ishlash jarayonida ishlatilgan suvlar, shaxtalarning suvlari, neft mahsulotlari, o'rmon kesish, taxta tayyorlash, yog'ochlarni oqizish jarayonida ishlatilgan suvlar, suv, temir yo'l va avtomobil transporti chiqindilari, teri oshlash, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida ishlatilgan suvlar hisobiga ifloslanadi. Selyuloza-qog'oz sanoati korxonalarini, kimyo, metallurgiya, neftni qayta ishlash zavodlari, to'qimachilik fabrikalari va qishloq xo'jaligi korxonalarini yer usti suvlarini ayniqsa ko'p ifloslantiradilar. Neft va neft mahsulotlari eng ko'p tarqalgan ifloslantiruvchi moddalar sirasiga kiradi. Ular suv yuzasini yupqa plenka (qatlam) bilan qoplab oladi va suv bilan havoda o'rtasidagi

⁴ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.07.2025 й., 03/25/1076/ 0672-сон



normal gaz hamda namlik almashinuviga to'sqinlik qiladi. Bu esa suv yuzasida yashovchi jonzodlarning qirilib ketishiga sabab bo'ladi.

O'rmon qonunchiligida o'rmonlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, ularni muhofaza qilish xalq xo'jaligi va aholining taxta, yog'ochlarga va boshqa o'rmon mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qoplash maqsadida o'rmonlarni qayta tiklash va mahsuldorligini oshirish, o'rmonlarning suvni saqlash, ob-havoni mo'tadillashtirish, sanitariya-gigiyena, sog'lomlashtirish va boshqa foydali xususiyatlarini oshirish, shuningdek, korxonalar, tashkilot, muassasalar va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, o'rmon munosabatlari sohasida qonuniylikni mustahkamlash maqsadida o'rmonga oid munosabatlarni tartibga solish nazarda tutilgan. Ushbu talablarning bajarilmasligi o'rmonga oid huquqbuzarliklar deb ataladi. O'rmonga oid huquqbuzarliklar birinchi navbatda noqonuniy daraxt kesish hamda daraxtlar va butalarga shikast yetkazishdir. Yaylovlar va ekinzor maydonlariga ega bo'lish maqsadida o'rmonlardagi daraxtlar kesib olinadi, bundan tashqari bu daraxtlarni o'tin, qurilish materialisi sifatida ishlatish uchun ham kesib ketadilar.

O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 24-moddasida quyidagi qonunbuzarliklar uchun javobgarlik nazarda tutilgan: atmosfera havosiga chiqarishga yo'l qo'ysa bo'ladigan darajadagi tutun va gazlar normativlarining oshirib yuborilishi; atmosfera havosiga zararli fizik ta'sirlarning normativdan oshirib yuborilishi; maxsus organlarning ruxsatisiz atmosfera havosiga ifloslangan moddalarning chiqarilishi; tozalash inshootlarini o'rnatish va ishlatish qoidalarining buzilishi; havoni muhofaza qilish talablariga javob bermaydigan korxonalarning ishga tushirilishi; xuddi shunday avtomobillar, samolyotlar va kemalarning ishga tushirilishi; atmosfera havosini bulg'aydigan narsalarni joylashtirish, jo'natish va saqlash qoidalarining buzilishi⁵. Sanoat va transport atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalar sirasiga kiradi. Sanoat atmosfera havosini turli zararli gazlar va industriya changi bilan

⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 1997, 2-сон, 52-модда



bulgʻaydi. Issiqlik elektrostansiyalari, metallurgiya, kimyo, sement zavodlari hamda boshqa zavodlar atmosfera havosiga koʻplab ifloslantiruvchi moddalar chiqaradilar.

Avtomobil transporti atmosferani ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Avtomobillar chiqaradigan ishlangan gazlar tarkibida kamida 200 xil zaxarli modda bor, bu gazlar bilan atmosferaga is gazi (karbon oksid), azot oksidlari, uglevodorodlar, qoʻrgʻoshin va uning birikmalari chiqadi. Bir litr etil aralashgan benzin avtomobil motorida yonganida havoga 200-400 milligramm qoʻrgʻoshin chiqadi. Ifloslantirilgan notoza havo inson, jonvorlar va oʻsimliklar organizmiga turli xilda zararli taʼsir koʻrsatadi, xalq xoʻjaligiga katta zarar yetkazadi, biosferadagi chuqur, tuzatib boʻlmas oʻzgarishlar sodir boʻlishiga sabab boʻladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda jonivorlarni taʼqib qilish, qirib yuborish yoki bir joydan boshqa joyga oʻtkazish hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzish hisoblanadi. Bu hol asosan ovlanadigan hayvonlar chekiga tushadi, chunki odamlar ularni terisi, goʻshti va yogʻini olish maqsadida ovlaydilar. Natijada ularning soni kamayib ketadi, baʼzi turlari esa butunlay yoʻqolib ketadi. Yer yuzida juda kam qolgan hayvonlar noyob va qirilib ketayotgan turlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda ularning bundan keyin mavjud boʻlishi katta xavf ostida qolmoqda. Shu sababdan ular Oʻzbekiston Respublikasining Qizil Kitobiga kiritilgan boʻlib, ehtiyot qilinishi va himoya qilinishi zarur.

REFERENCE:

1. Mirziyoyev SH.M. Oliy majlisga va koʻp millatli Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasi 2026-yil 2-dekabr
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: Oʻzbekiston, 2018. – 508 b. ;
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi //Xalq soʻzi, 2017 yil 20 sentabr;
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. –T.: Oʻzbekiston, 2017. – 592 b.;



5. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz /O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi //Xalq so‘zi, 2016 yil 16 dekabr;
6. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr;
7. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi //http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020;
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 29 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigi (07.12.2021 y.) //www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitusiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi (7.12.2021 yil) //www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
10. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021, 383-bet;